



## KO'PCHITILGAN VERMIKULIT ASOSIDA OLOVBARDOSH VA ISSIQLIK IZOLYATSIYALOVCHI PLITALARNING SAMARADOR TARKIBLARINI ISHLAB CHIQISH

*Tojiboyeva Nozima Yorqin qizi*  
*Jizzax Politexnika Instituti 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ko‘pchitilgan vermikulit – tabiiy tog’ jinsi vermikulitni 1000-1100°C haroratda pishirib ko‘pchitish yo‘li bilan olinadi. Ko‘pchitilgan vermikulitning o‘rtacha zichligi donador zarralarning o‘lchamlariga bog‘liq bo‘lib 80 dan 400 kg/m<sup>3</sup> gacha boradi, issiqlik o‘tkazuvchanligi 0,05 dan 0,9 Vt/m0K. Maqolada ko‘pchitilgan vermikulit asosida olovbardosh va issiqlik izolyatsiyalovchi plitalarning samarador tarkiblarini ishlab chiqishning zamонавији va natijaviy usullari haqida so’z boradi.

**Kalit so’zlar:** Ko‘pchitilgan vermikulit, olovbardosh, izolyatsiya, plita, energiya, resurs, material, yong’in.

Jahonda energiya resurslariga bo‘lgan talab va ular tannarxining doimiy o‘sib borishi, ayniqsa qurilishda energiya tejamkor materiallar va texnologiyalarni joriy etishni talab qilmoqda. Bu borada rivojlangan mamlakatlarda, jumladan AQSh, Germaniya, Yaponiya, Xitoy, Rossiya kabi mamlakatlarda issiqlik izolyatsiyasi uchun foydalaniladigan materiallarni ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, ishlab chiqarishda sanoat chiqindilaridan foydalanish, issiqlik izolyatsiya materiallarining tarkiblari va xossalalarini optimallashtirish, ularning tan narxini arzonlashtirish va samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ommaviy materiallar bilan ishslash issiqlik izolyatorlarini qoliplash bilan solishtirganda o‘rnatish jarayonini osonlashtiradi. Plitalar kesilishi va mahkamlagichlar bilan o‘rnatilishi kerak. Shuningdek, bunday izolyatsiyada sovuq ko‘priklarni hosil qilishi mumkin bo‘lgan bo‘g‘inlar mavjud bo‘lib, bu materialning issiqlik izolyatsion xususiyatlarini yo‘qotishiga olib keladi.

Mineral plitalar pishiriqning o‘ziga xos xususiyatiga ega. Kengaytirilgan granulalar pishirilmaydi va qisqarmaydi. Shuningdek, ular g’ovakliligi tufayli yuqori darajadagi ovoz yalitimini ta’minlaydi.

### Vermikulitning xususiyatlari:

- Yuqori quvvat daroji;
- Yuqori zichlikdagi ichki tuzilish;
- O‘rnatish qulayligi;



- Yuqori namlik qarshiligi.

Issiqlik izolyatsiyalovchi materialni ishlab chiqarishda yopiq konturli bo'shliqlar mavjudligini o'z ichiga olgan maxsus texnologiya qo'llaniladi. Ushbu struktura butun operatsiya davrida materialni juda namlikka chidamligi qiladi.

Vermikulitni izolyator sifatida ishlatish boshqa turdag'i issiqlik izolyatsiyalash materiallari uchun mavjud bo'lмаган bir qator muammolarni hal qiladi. Juda past issiqlik o'tkazuvchanligiga qo'shimcha ravishda, izolyator yong'inga chidamlilik, kimyoviy inertlik va aks ettirishni ta'minlaydi. Yong'in paytida bo'shashmasdan izolyatsiyalangan devor yaxshi yong'inga qarshi to'siq bo'ladi. Shuningdek, bunday issiqlik izolyatsiyalovchi materialdan foydalanish uyning issiqlik izolatsiyasi uchun moliyaviy xarajatlaringizni kamaytiradi.

### **Materialning asosiy afzallikkleri quyidagilardan iborat:**

- yong'inga chidamlilik (1350 OS);
- zinchlik (150 kg / m<sup>3</sup> dan yuqori bo'lмаган);
- past issiqlik o'tkazuvchanligi (0,12 Vt / m \* K dan oshmasligi kerak);
- tajovuzkor muhitga, bakteriyalarga qarshilik va sirtda mog'or hosil qilmaydi;
- gigroskopiklik;
- tovushni qabul qilish qobiliyati (tovushni yutish koeffitsienti 0,8 gacha);
- ekologik tozalik;
- xizmat muddati (60 yil).

Ko'pchitilgan vermiculiting shixta tarkibi umumiy ulushiga nisbatan donadorligi 0,8÷1,6 mm li fraksiyadan 85 %, 1,6÷2,2 mm li fraksiyadan esa 15% miqdorda kiritilgan optimal tarkiblar bo'yicha olingan plitaning eng yuqori fizik-texnik va fizik-mexanik ko'rsatkichlari aniqlangan. Hamda ko'pchitilgan vermiculit va bog'lovchi sifatida portlansement hamda suyuq shishadan foydalanib olingan optimal tarkibli plitaning siqilishdagi (1,5-4,6 MPa) va egilishdagi (1,2-2,0 MPa) mexanik mustahkamligi ta'minlangan

Vermikulit asosida olingan plitalarining «tarkib-struktura-xossa» tizimida o'zaro bog'liqlik qonuniyatları o'rnatilgan, mineral bog'lovchi va yengil to'ldiruvchi kompozisiya tarkibidagi ulush o'zgarishi va struktura hosil bo'lishiga ta'sir etishi isbotlangan.

Ko'pchitilgan vermiculit olish texnologiyasi bo'yicha sun'iy g'ovak to'ldiruvchi ishlab chiqarish va u asosida plitalar olishni keng miqiyosda ishlab chiqarishga oid ilmiy tadqiqot ishlari o'rganilgan portlandsement, ko'pchitilgan vermiculit tarkiblarini

plitalar texnalogiyasini joriy qilishdagi mavjud muammolar asosida loyihaning ishchi gipotezasi shakillantirilgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Tebinbuloq konidan olingan vermiculit xom ashyosini, termik ishlov berish natijasida olingan ko‘pchitilgan vermiculitning kimyoviy tarkiblari va fizik-kimyoviy tarkiblari o‘rganilgan. Ko‘pchitilgan vermiculitning mayda va yirik to‘ldiruvchilarini zarraviy tarkibini aniqlash uchun hisoblash dasturi ishlab chiqildi.

Ko‘pkomponentli sement va ko‘pchitilgan vermukulit tarkiblari o‘ta yengil betonlar ishlab chiqarish uchun amaliyatga joriy qilingan. Buning uchun optimal tarkib B-4 deb tanlandi va u bo‘yicha o‘lchamlari 2400x1200x20mqli plitalarni presslash usulida ishlab chiqildi. Tajribalar shuni ko‘rsatdiki vermiculit plitalar zichligi 650 kg/m<sup>3</sup>, siqilishga bo‘lgan mustahkamligi (3,82 MPa), egilishga bo‘lgan mustahkamligi (1,84 MPa), issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffisenti 0,10 Vt/m·°C, issiqlik o‘tkazuchanlik qarshiligi R=0,13 m<sup>2</sup>\*K/Vt va yonuvchanlik 750 °C natjalarni ta'minlab berishi aniqlandi.

Vermikulitli plitalar bozorida talab eng yuqori bo‘lgan standart o‘lchamlari 1200x600x20 mqli va yuzasi 0,72 m<sup>2</sup> o‘lchamli plitaning tannarxi 75 600 so‘mni tashkil etishi hisoblangan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-noyabrdagi No PQ-3379 -sonli «Energiya resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minalash chora-tadbirlari to‘g’risida»gi qarori.
- 2) X.A.Akramov, M.Turopov “Beton va temir-beton texnologiyasi” Toshkent-2021 yil.
- 3) Komilov X.X “Zamonaviy qurilish materiallari” (o‘quv-uslubiy majmua), TAQI.2020 y.
- 4) Alimov X.A., Ikromov O.R. “Pardozlash va issiqlik izolatsiya materiallari” ni ishlab chiqarish asoslari fanidan bosqich ishini bajarishga doir uslubiy ko‘rsatmalar. — T., 1993.
- 5) Большаков В.И., Куличенко И.И., Мартыненко В.А., Бурейко С.В. Сборник научных трудов международной конференции. Выпуск 2. 2001.